

ISAJON SULTONNING ASARLARIDAGI SHAMOL OBRAZI TAHLILI

**Maqsadboyeva Umidaxon Ergash qizi**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Isajon Sul-ton – zamonaviy O‘zbekistonning taniqli yozuvchilaridan biri. Uning roman, qissa va hikoyalari O‘zbekistonda munosib e’tirof etilganidan tashqari, adib nomi bir qancha chet davlatlardagi davralarga ham birmuncha tanish.

Ushbu maqolamiz O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sul-tonning asarlaridagi shamol obrazi tahliliga bag‘ishlanadi. Avvalo, shuni ta’kidlab o’tish joizki, shamol Allohning yaratgan maxluqi va uning amri bilan rahmat ham, la’nat ham bo‘lib kelishi mumkin.

Shamol adibning asarlarida majoziy xususiyatga ega bo‘lgani uchun, uni turlicha izohlash mumkin.

**Kalit so‘zlar:** ramz, majoz, timsol, tahlil, Sulaymon (a.s), shamol, “Naml”, “Hoqqa”, “Saba”, “Ozod”, “Onaizorim”, “Qismat”, “Boqiy darbadar”, Iso (a.s), Ayyub (a.s), Dovud (a.s), “Shamolli kecha”, Choymoma, Mansur Halloj.

	نَوَعَرَوِي	و ل ر ش ج		
		( ۱۷ : ن م ل )		
-dan	uning qo‘shinlari	Sulaymon uchun	va ular to‘plandi	
tarqatildi	va ular	va qushlar	va odamlar	jinlar

“Sulaymon (xizmati) uchun jin, ins va qushlardan iborat lashkarlari to‘planib, tizilgan hollarida turdilar”1. (“Naml” surasi 17-oyat)

Tafsir: Sulaymon (a.s)ga jinlar tilla va ipakdan katta gilam to‘qib bergan bo‘lib, uning o‘rtasiga tilla taxt ustiga o‘zi, atrofidagi tilla va kumushdan yasalgan 600 ming kursida nabiyalar va ulamolar, ularning atrofida odamlar, ularning atrofida jinlar o‘tirar, osmonda qushlar qanoti bilan soya solib turar, shamol gilamni ko‘tarib, aytilgan joyga eltar ekan.

“Sulaymonga ertalab bir oylik, kechki payt bir oylik (masofani bosib o‘tadigan) shamolni (bo‘yin sundirdik) va uning uchun mis bulog‘ini oqizib qo‘ydik”2. (“Saba” surasi, 12-oyat) Alloh taolo Sulaymon (alaihissalom)ga shamollarni buysundirib qo‘ygan va Sulaymon (alaihissalom)ning taxti va lashkarini shamol bir joydan boshqa joyga ko‘chirib o‘tirardi.

Mashhur tobein Hasan Basriyning aytishicha, Alloh Sulaymon (a.s.)ga juda go'zal otlarni duch keltiradi, yaratgan zikridan otlar sabab chalg'iganini anglagan zot ularni qurbonlikka so'ygach, (Sulaymon davrida sigir va buqa kabi otlarni ham qurbonlik qilishgan) Alloh unga yanada yaxshi harakatlanish vositasini, ya'ni shamolni beradi. Hasan Basriy Sulaymon (alayhissalom) tongda Quds (Isroil)ni tark etib, kechki payt Istahr (yoki Stahr – Eron)ga yetganligini ta'kidlagan. Bu ikki joy oralig'idagi masofa 2000 kilometrni tashkil etadi. Istahrga borib asr namozini o'qib, ovqatlanib, sayohatni davom ettirganligi va kun botganda Qobulga yetgan (bu ham taxminan 2000 kilometrni tashkil etadi)ligi haqida ham roviylar ma'lumot berganlar. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, Choymomo – o'zbek folklorida shamol homiysi sifatida tasavvur qilingan mifologik obrazlardan biri. Surunkali esgan shamolni to'xtatish uchun Choymomoga murojaat qilish bilan bog'liq turli xil (yolg'on) ishonch e'tiqodlarni o'z ichiga olgan marosim Chimkent viloyatida yashovchi o'zbeklar tomonidan o'tkazib kelingan. Qadimda odamlar kuchli yel, quyun yoki dovul sifatida namoyon bo'ladigan hamda ekin-tikinlarni payhon qilib, daraxtlarning mevasini to'kib, katta ziyon yetkazadigan shamolni yovuz kuch alomati deb bilishgan. Bevaqt esgan shamolni to'xtatish va hosil nobudgarchiligining oldini olish maqsadida bu tabiiy hodisaga turli magik amallar bilan ta'sir ko'rsatishga harakat qilishgan.

Shamol obrazi Isajon Sulton asarlarida goh oddiy tabiat hodisasi sifatida uchrasa, goh ramziylik kasb etadi. "Ramz (ar. so'z bo'lib – imo, ishora, imlash) – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi". Atamaning keng tushuncha ekanligini, qo'llanganda turli ma'no turlanishlariga yo'liqishini ham e'tibordan soqit qilmagan ma'qul.

Isajon Sulton "Boqiy darbadar" romanidagi bo'ron bilan bog'liq ramziy ishoralarga quyidagi fikrlarni bildirgan edi:

"Modomiki, timsollar va ishoralar olamida yashayotgan ekanmiz, zamonaviy dunyo ham ongimizda bo'ron hosil qilishi turgan gap. Chunki o'zbek kishisi shu mahalgacha ko'rmagan u bexabar yuzlab hodisa girdoblarining orasida qoldi... Bugun turli ko'rinishdagi, turli e'tiqoddagi o'nlab manfaatparast toifalar orasiga to'nini yelkaga tashlab, boshiga do'ppisini kiyib chiqib keldi".

Shuningdek, yana bir o'rinda ijodkor bo'ronga endi daxshatli hodisa emas, oldini olsa bo'ladigan hodisa sifatida ham qarash shakllanayotganini va tabiatni Tangri insonga xizmatkor qilib yaratganini ham ta'kidlaydi.

"Boqiy darbadar" romanida yana shamol – Parvardigorning qudrati ramzi sifatida gavdalanadi va ma'naviy darbadarlikka uchragan insonlarni yo'qlikka mahkum qiladi: "Ichida xas-xashaklar-u shox-shabbalar mayda-chuyda cho'l jonzotlariga qo'shib chirpirak bo'lib aylanayotgan, girdoblari ulkan jonli ilonlar kabi yerdan ko'kka cho'zilgan bo'ron, sahroning har bir qadamini g'oyatda sinchkovlik bilan "titib" chiqib,



hozir nishonini “yo’qotib” qo’rgan va bir-biriga tashlanishga shay turgan harbiy uchoqlar tomon shiddat bilan yaqinlashib bormoqda edi... Tiyonshon yonbag’ridagi g’orda istiqomad qiladigan avliyo ham qo’rquvga tushgan edi. Parvardigori olam kuch-qudratining bir timsoli bo’lgan bu ofatning nima ekanini u yaxshi bilardi. Bir ozdan so’ng urilgan yanada shiddatliroq epkin g’or og’zida o’sgan anjirni

– rizq daraxtini tag-tomiri bilan sug’urib oldi va pastlikka qarab xasday uchirib ketdi...”<sup>3</sup>

Shu o’rinda ta’kidlab o’tish lozimki, shamol Allohning izni ila goh g’azabga aylansa, goh rahmatga aylanadi.

«Od (Hud payg’ambar qavmi) esa, dahshatli, quturgan bo’ron bilan halok qilindilar. U (bo’ronni Alloh) ularning ustiga paydar-pay yetti kecha va sakkiz kunduz hukmron qilib qo’ydi, endi u joydagi qavmning (chirib) ichi bo’shab qolgan xurmo daraxtining tanasidek qulab halok bo’lib yotganlarini ko’rasiz. Bas, ulardan (biror) asoratni ko’ryapsizmi?! (Aslo! Ularning barchalari halok bo’lib bitdilar)»<sup>4</sup>. (“Hoqqa” surasi, 6–8-oyatlar)

Yo’ldosh Solijonov Isajon Sulton nasridagi shamol obrazi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Adib ijodida ayniqsa, “Havolarni almashtiradigan va tabiatni jo’shtiradigan” shamol, suv, bulut, yomg’ir kabi tabiat unsurlari muhim o’rin tutadi va muallifga qahramonlari holatini, ichki olamini, muhit hamda vaziyatni yanada ishonarli ifodalashiga xizmat qiladi”.

Adibning “Ozod” romanida shamol, “Onaizorim” qissasida ariq suvi, “Qismat” hikoyasida baliq obraz darajasiga ko’tarilgan.

Shamol ulug’ donishmand; ariq suvi maslahatgo’y, do’st; baliq o’z xato va gunohlari uchun ayanchli taqdirga mahkum etilgan osiy sifatida gavdalanadi. Har bir obraz badiiy asar g’oyasi yo’lida xizmat qiladi, asar mohiyatini ochib berish uchun qo’llaniladi.

Bu haqda adibning o’zi quyidagicha izoh beradi:

“Men ulg’aygan diyordalarda shamol juda qattiq esadi. Daraxtlarni sindirib, tomlarni uchirib ketadi. Aqlim to’lishgani sayin, olamda undan ham kuchli shamollar borligidan xabar topdim. Masalan, fikrlarni uchirib ketadigan tafakkur shamoli, hislarni uyg’otadigan muhabbat shamoli... Shamolning vazifasi bitta: havolarni yangilaydi, barakat va rahmat bulutlarini surib keladi, shuning barobarida dov-daraxtni ham changlab, eski yaproqlarni to’playdi. Biroq, kezi kelganida vaqt shamoliga ham aylanadi, sochlarimizdan tortqilab yulqilab o’tmish onlaridan va tushunarsiz kelajakdan darak ham beradi”<sup>5</sup>.

Adibning “Ozod” romanida uzoq yo’lga (Ramziy ma’noda qahramon bilan biz ham ichki dunyomizga yoki ma’naviy olamimizga sayohat qilamiz deyishimiz ham mumkin) chiqqan qahramonga shamol yo’ldosh bo’ladi.

Olim Abdug’afur Rasulov asardagi shu holatni quyidagicha izohlaydi: “Shamol – o’zgarishlar timsoli. U taqdirlarni ham o’zgartirishi mumkin, deydi Isajon. “Ma’no

dashtlaridan ilgarilab borganing sayin kutilmagan hodisalarga duch kela boshlaysan”, deydi shamol6.

“Dunyo o‘z holicha senga yomonlik ham, yaxshilik ham keltirmaydi. Tegrangdagi ro‘y berayotgan hamma narsa aslida o‘z fikrlaring, his-tuyg‘ularing, istak va tushunchalaringning aksidir. Dunyo ulkan ko‘zguvir, ikki ko‘zguni qarama-qarshi qo‘yganingda manzaralar uzluksiz takrorlangani kabi, olam ham qalbingda va ruhingda muttasil akslanmoqdadir, deydi Ustoz (shamol). Demak, bu oddiy shamol emas – tafakkur Shamoli.

“Ozod” romanida Ozod shamolga endi “kishi” deb ta’rif beryapti. Shamol ostida g‘uvillagan ko‘za timsoli insonni xayolga toldiradi. Asar oxirida yarmigacha qumga ko‘milib yotgan ko‘za ham shamol o‘zgarishlari ostida sado chiqara boshlaydi, u to‘satdan Navoiy bo‘lib nido qiladi. (Kim uchundir Xayyom, Mashrab bo‘lib nido qilsayam ajabmas (Abdug‘afur Rasulov)7. Bu yerdagi shamolning ta’siri tufayli nido qilayotgan ko‘za asarda Murtad (dindan, iymondan qaytgan inson) ramzi (Asarda ko‘zga ko‘rinmas arslon Murtadni bir urganida u sanqib yuruvchi ming-minglab bo‘m-bo‘sh ko‘zalarga aylanib ketadi) ekanini bilsak, shamol ma’nolar xazinasini sifatida gavdalanadi.

“Ozod” romanida Ozodga shuncha o‘g‘itlar bergan, voqea va hodisalar orasidan yetaklab o‘tgan donishmand shamol Iskandar devori qarshisida yanada shiddat bilan esib, uni yuksakka ko‘tara boshlaydi. Sababi – Ozod tevarakdagi jami jonli-yu jonsizga muboraklik maqomini bera olish darajasiga yetib keldi. Yer-u osmonlar o‘ziga bo‘ysundirilganini bildi. Shu sabab ham yurt tuproqlariga muqaddaslik, o‘ziga yo‘l ko‘rsatgan va ogohlantirgan Ahli So‘zga muboraklik darajasini berdi va shamolga “Amrimga bo‘ysun” deb xitob qildi. Ajabki, yigitchaga turli nasihatlar berib kelayotgan shamol endi lom-mim demay bo‘ysundi. Ozodni samolarga ko‘tarish bilan birga yoyilib ortda qolib ketgan qishloq uzra ham esdi. Avom shamolni qanday bo‘lsa shunday – kundalik oddiy hodisa sifatida ko‘rmoqda, hikmatdan bexabar dehqon ekinlarimni payhon qilding deb yozg‘irmoqda, qishloq ayoli kirlarimni yer bilan bitta qilding deb qarg‘amoqda... ayni paytda bu shamol Ozodni hikmat cho‘qqisi sari ko‘tarmoqda”8.

Asarning nihoyasida yana bir muhim ochqich-kalit turibdi: “Elning bitta bolasi mana shunday tarzda voyaga yetadi...”

“Ha, endi Ozod o‘z vatani uzra shamol bo‘lib yeladi, ko‘zga ko‘rinmas arslonning yollarini yulqilab o‘ta oladi, yomg‘irlarga aylanib barakot bo‘lib yog‘a oladi, tuproq bag‘ridagi xazinalarni ochadi... qisqasi, tuproqlarning Egasi darajasiga erishadi. Mana shu bois ham romandagi turli personajlar o‘zlari bo‘ysungan zotlarni Egam der edilar. “Egamni yov o‘ldirdi, endi men nima qilay”, deb borayotgan kuchuk, Egamning egasi deyayotgan Dilorom... va butun yurt tuproqlari endi Ozodni Egam deb tanishiga shubha yo‘q. (Badiiy asar turli insonlarga turlicha ta’sir qilganidek, ushbu parchadagi “Egam” – Alloh deyuvchilar norozi bo‘lishlari mumkin).

Bu xuddi Alloh o‘zi sevgan bandalariga o‘z fazilatlaridan berib, ularni boshqa bandalardan afzal qilishiga ham qiyoslanishi mumkin. Iso (a.s)ga ko‘rlarning ko‘zini



ochish, peslarni tuzatish, o'liklarni tiriltirish xislatlarini bergan bo'lsa, Dovud (a.s)ning qo'lida temish xamirday erigan. Ayyub (a.s) sabr-toqat timsoli bo'lsa, Sulaymon (a.s)ga butun devlar, jinlar, shamol bo'ysuntirildi va qurt-qumusqalar-u qushlar tili bildirildi. Bular iymonimizning bir qismi va aslo-aslo bularga zarra shubha qilmaymiz. Bu timsollar adabiyotda ham keng tarqalgan.

Asardagi "Egam" Mansur Hallojning "Anal haq" ("Men Haq Xudoman") jumlasini ham qaysidir ma'noda yodga soladi. Bu xususda bahs qiluvchilar uchga bo'linadi. 1. Zohiriga ko'ra hukm chiqaradiganlar. 2. Ta'vil qiladiganlar. 3. Sukut qiladiganlar. Sukut qiladiganlarning xulosalari quyidagicha: "Mansur Hallojning "Anal haq" degan so'zi zohiran kufrga ham, ta'vil qilinsa to'g'ri ma'noga ham dalolat qiladi. Ahli qibladan biror kishini ham modomiki gapini haqqa ham, botilga ham ta'vil qilish imkoni bo'lsa, kofirga chiqarishga oshiqmaslik kerak. Ana shu e'tibordan Mansur Halloj holati maxfiy kishidir. Holati maxfiy bo'lgan kishi haqida biror tarafga hukm chiqarmaslik, balki oqibatini Allohga havola qilib sukut qilish eng afzal yo'l hisoblanadi".

Ibn Hajar Haytamiy "Fataval hadisiya" kitobida quyidagilarni yozgan: "Mansur Hallojning "Anal haq" degan so'zi haqida quyidagilarni aytamiz: Orif zotlarda shunday vaqtlar bo'ladiki, bu vaqtlarda ularda Haq taologa bo'lgan muhabbat shavqi g'olib bo'ladi. Agar ularda mazkur shavq holati komil darajaga yetsa, barcha narsalarni, hatto o'zlarini ham unutadilar, qalblari tamomila Haq taologa bog'langanidan boshqa biror narsani his qila olmay qoladilar. Ana shu vaqtda gapirgan so'zlari o'sha ulug'vor holatning tiliga ko'ra so'zlangan bo'ladi. Bu holatga quyidagi hadisi qudsiyda ishora bor: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Alloh taolo: "Kim mening biror do'stinga dushmanlik qilsa, unga urush e'lon qilaman. Bandam uning zimmasiga farz qilganimdan boshqa men uchun sevimli bo'lgan biror narsa bilan (farzlarni bajargandagidek) menga suyuqli bo'la olmaydi. Bandam nafl (ibodatlarini bajarish) bilan menga suyuqli bo'lib boraveradi, hatto uni yaxshi ko'rib qolaman. Agar uni yaxshi ko'rib qolsam, uning eshitadigan qulog'i bo'laman, ko'radigan ko'zi bo'laman, tutadigan qo'li bo'laman, yuradigan oyog'i bo'laman, agar mendan (biror narsani) so'rasa, albatta, unga ato qilaman, agar mendan (biror narsadan) panoh tilasa, albatta unga panoh beraman", deb aytdi", - dedilar". Buxoriy rivoyat qilgan.

Shunga ko'ra valiyalar Haq taologa xos narsani haqiqatan emas, balki xayolan o'zlariga isbot qiladilar. Ularning bu gaplari aslo Alloh bilan birlashish ma'nosida emasdir. Chunki bu ma'no ayni kufr bo'ladi. Alloh ularni bu narsadan saqlagandir.

Isajon Sultonning "Shamolli kecha", "Sog'inch", "Avliyo", "Oydinbuloq" hikoyalarida shamol esishi, o'yini, qahri, muloyimligi o'ziga xos timsol; "Boqiy darbadar" romanida bo'ron daxshatli kuch va ilohiy aralashuv sifatida ko'rsatiladi; "Ozod"da sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi.

"Shamolli kecha"da shamol real voqelik, hamda taqdir shamoli tarzida namoyon bo'ladi. Hayot shamolining turli-tuman xavflari aro onasi Nozik, xolalari Latofat,

ammalari Go'zal deb ataydigan, ko'zlari kulib turadigan yoqimtoygina qizaloq, ya'ni go'zallik, latofat, nazokat timsoli va eng asosiysi, akaning or-nomusi qo'rquvlar bois o'sha xavf-xatarlar ichida qolib ketdi"<sup>9</sup>. (Abdug'afur Rasulov)

"Sofiya" hikoyasida Sofiya nomi bilan aytiladigan to'fonning qisqa muddat ichida hamma yoqni vayron qilishi, benihoya kuchi bilan og'ochlarni sindirishi kabi tasvirlar uchraydiki, endi bunda shamol buzg'unchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Sofiya muhitni o'zgartirdi. Izidan yog'gan yomg'ir g'uborlarni yuvib tashladi. Shunda biz to'fonning ofat emas, balki (to'fonday kirib kelgan) muhabbat ekanini his qilamiz. "Sofiya" so'zi yunonchada yuksak donolik, Iymon, Umid, Muhabbat ma'nolarini anglatadi, bu hikoyaning ochqich-kaliti shu so'zdir... nafaqat muhabbat, balki voqea-hodisalar va tuyg'ulardan tashqari, boshqa tur ma'naviy bo'ronlar ham borki, ular ham inson hayotini mana shunday tubdan o'zgartirib yubora oladi"<sup>10</sup>. Adib asarlarida shamol – tunganmas poetik imkoniyat.

Olim Yo'ldosh Solijonov ham Isajon Sulton ijodi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Havolarni almashtiradigan va tabiatni jo'shtiradigan" Shamol, suv, bulut, yomg'ir kabi tabiat unsurlari muhim o'rin tutadi va muallifga qahramonlar holatini, ichki olamini, muhit hamda vaziyatni yanada ishonarli ifodalashiga xizmat qiladi. Inson bilan hamisha yonma-yon yuradigan ona tabiatning bu ajoyib hodisalari yozuvchi asarlarida goh detal, goh obraz sifatida namoyon bo'lib, zarur paytda o'z sohibi bilan suhbatlashadi, unga ko'maklashadi, niyatiga yetishiga yordam beradi".

"Onaizorim" qissasining muqaddimasida "hayotning muayyan asoslarini ramziy ishoratlovchi" ramziy "Muqaddima" bor. "Unda tog'lar usti va bag'ridagi, bepoyon bepoyon kengliklardagi nabotot, mavjudotning bahorgi mavjlanishi, rizqlanishi, saqlanishi, shu muhit – borliqda havolarni almashtirayotgan, tabiatni jo'shtirayotgan va ilhomlantirayotgan ikki unsur

– shamol ila suv harakati tasvir etiladi... Shamol va suv ne'matlarining hayotiy-ilohiy hikmatlarini his etishga da'vat qilinadi. Ayniqsa, shu ikkisining asar sujetida keyin ham xuddi nasriy naqorat singari vaqti-vaqti bilan qatnashishlari badiiy voqelik rivojiga, qahramonlar ruhiyatiga o'ziga xos ta'sirchanlik taratgan"<sup>11</sup>.

"Qismat" hikoyasida ham Ibrohim G'afurov so'zi bilan aytganda: "...o'rgimchakni kuzatish, arilar, qushlar, daraxtlar, o't-o'lanlar, shamollar, yomg'irlar, to'fonlar... hammasi bolaning romantik xayollari ichida va barchasida sinchkov bir falsafa... bolalik havaslarining uyg'onishi va ularni tasvir jozibasi bilan kashf etish... plani turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri/tarjima va tafsir muallifi: Shayx
2. Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Movarounnahr, 2020.
3. Sulton I. Qoraqush yulduzining siri. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.



4. Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
5. Salohiddin ibn Ahmad. Islomda bid’at tushunchasi. – Toshkent: Munir, 2021.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021.
7. Sulton I. Boqiy darbadar. Sharq yulduzi / 2010 yil, 6-son.
8. F. Salaev, G.Qurboniyozov. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
9. Rasulov A. Shafolat yog’dusidan bahramandlik // Sharq yulduzi, 1991, 10-son.
10. Sulton I. Ozod. – Toshkent: “Sharq”, 2012.
11. Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar. // Sharq yulduzi. 2011, 5-son.